

AHADQULI HOLMUHAMMAD O‘G‘LINING “SAVDOGARLAR USTOZI” ASARIDAGI VOQEALAR TALQINI

Andijon davlat chet tillari instituti

Ma’murova Dilraboxon

Ilmiy maslahatchi: Xomidova Malohat

Annotation: Ushbu maqola Ahadqli Holmuhammad o‘g‘lining “Savdogarlar ustozi” asari haqida. U savdo-sotiq madaniyati, axloqiy qadriyatlar va halol mehnat haqida yozilgan ibratli nasihatnama asardir. Unda savdogarlar hayoti, ularning fazilatlari, savdo axloqi va ijtimoiy mas’uliyatga doir hikmatli hikoyalar orqali bayon etiladi. Asarda halollik,adolat, ishonch, sabr, tafakkur kabi insoniy fazilatlar yuksak baholanadi. Hikoyalar sodda, xalqona tilda yozilgan bo‘lib, o‘quvchini o‘ziga jalg etadi va chuqr mulohazaga undaydi. “Savdogarlar ustozi” bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, yosh avlodni halollik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘la oladi.

Keywords: halollik, Numon ibn Sobit, savdogar, ehson, maqsadlilik, Biznesmenlar forumi, sarmoya.

Abstract: This article is about the work “The Teacher of Merchants” by Ahadqli Holmuhammad oglu. It is an instructive work of advice written about the culture of trade, moral values, and honest work. It describes the life of merchants, their virtues, business ethics, and social responsibility through wise stories. The work highly values such human qualities as honesty, justice, trust, patience, and thoughtfulness. The stories are written in a simple, folk language, which attracts the reader and encourages deep reflection. “The Teacher of Merchants” is still relevant today and can be an important source for educating the younger generation in the spirit of honesty and hard work **Key**

words: honesty, Numon ibn Thabit, merchant, charity, purposefulness, Businessmen's Forum, investment.

Аннотация: В статье речь идет о произведении «Хозяин купцов» Ахадкули Холмухаммеда оглы. Это поучительный труд, содержащий советы о деловой культуре, моральных ценностях и честном труде. В нем посредством мудрых историй рассказывается о жизни торговцев, их добродетелях, деловой этике и социальной ответственности. В произведении высоко ценятся такие человеческие качества, как честность, справедливость, доверие, терпение и вдумчивость. Рассказы написаны простым народным языком, который увлекает читателя и побуждает к глубоким размышлениям. «Учитель купечества» актуален и сегодня и может стать важным источником воспитания подрастающего поколения в духе честности и трудолюбия.

Ключевые слова: честность, Нуман ибн Сабит, торговец, благотворительность, целеустремленность, Форум предпринимателей, инвестиции.

“Haqiqiy omad kaliti yoxud Savdogarlar ustozi” nomini olgan ushbu asar Abdulloh ibn Muborak haqida. Otasi Muborak bir qozining uzumzorida ishlovchi xizmatchi bo‘ladi. Kunlarning birida, qozining huzuriga mehmonlar kelganda unga umum olib kelishini buyuradi. Bir necha marotaba nordon uzum olib kelgandan so‘ng, uzumlardan totib ko‘radimi, yo‘qmi so‘raydi. Shunda Muborak “Siz meni uzumzorga uzum yeyish uchun emas, bog‘ni qorovullab, parvarishlashga buyurgansiz”-deydi. Ushbu voqeadan keyin qozi ko‘plab beklar so‘rayotgan qizini unga nikohlab beradi. Muborakning taqvosiga yana bir ishora u nikohdan keyin 40 kun ayoliga yaqinlashmaydi. Qozi so‘raganda “Siz qozisiz, shubhali taomlar, pullar bo‘lishi mumkin, shuning uchun 40 kun halol luqma yedirdim va bu ishni solih farzand uchun qildim”-deydi. Ana shunday insonlarning farzandi bo‘lgan Abdulloh Xorazimdag‘i barcha madrasalarda o‘qiydi. O‘tasi Qur’on yodlashi uchun unga o‘zi yoqtirgan sport bilan shug‘ullanishiga ruhsat beradi, masalan, bir ber yod olsa jang qilishiga, ikki bet

yod olsa ot minishga ruhsat beradi. Yetti yoshga to‘lmasdan otasi savdo ishlari bo‘yicha o‘z ko‘nikmalarini o‘rgata boshlaydi. Tijorat ishlarida arab tili kerak bo‘lganligi uchun agar uni o‘rgansa ot sovg‘a qilishini aytadi.

Xorazmdagi madrasalarni tugatgach Iroq, Yaman, Jazoir, Misr va Shom kabi davlatlarda ham o‘qib, ham tarjimonlik qildi, shu bilan birga savdo ishlari bilan shug‘ullandi. Bir kun ustozи Kufadagi Numon ibn Sobit ya’ni Imomi A’зам bilan uchrashishini aytди. U butun islom olamidagi olim va buyuk savdogar edi. Abdulloh undan din va tijorat bo‘yicha ko‘p bilimlarni o‘rgandi. Shu bilan birga “Qur’он тавсир” kitobini yozdi. Bir kun ular birgalikda xurmozorga bordilar. Uchta xurmozor bor edi, har biri har-xil edi. Eng serhosil bog‘ bir kambag‘al dehqonga tegishli edi. Bundan bir xulosaga kelishgandi: Omad-omadsizlar qilishni istamagan ishni qilishdir.

U savdo sohasida o‘z ko‘rsatmalari va bajargan ishlari bilan o‘chmas iz qoldirgan bo‘lib, har bir inson uchun dasturulamal bo‘ladigan bir gapni aytadi: “Maqsadlaringizni aniq qilib yozing va unga har kun qarang zero qalbga o‘rnashgan narsaning ta’siri azolarda seziladi. Maqsadi yo‘qlar maqsadi borlar uchun ishlaydi”.

U ellik yoshga yetganda har olti oyda dunyodagi yirik savdogarlar bilan yig‘ilishni tashkil etdi va unda narxlarni pasaytirish va xalqqa oson bo‘lishi uchun qiymatni barqaror saqlash bo‘yicha masalalarni muhokama qildilar. Barcha savdogarlar bilan bitim tuzildi lekin oltita savdogar bunga norozi bo‘ldi. Shu tariqa ilk Biznesmenlar forumi tashkil etildi.

Abdulloh biznes qilishni istagan insonlar uchun o‘nta oltin qoida yaratdi. Ular: taqdirga rozi bo‘lish, Halol va haromni to‘ri anglash va shubhali narsalardan voz kechish, erta tongdan ishga kirishish, barcha narsani o‘ziga qulay holatga keltirish ya’ni oson qilish, mahsulotining sifatini pasaytiradigan va narxiga ta’sir etuvchi omillarni bo‘lsa uni ochiq aytib sotish, foizlardan qochish, Sabr, dunyo moliga qiziqmaslik, barchasi Allohning nazdida foniy ekanligini bilish, molining narxini ushslash yani tog‘ri baholash va har doim rostgo‘y bo‘lishdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Sarmoya cho‘ntakda bo‘lmaydi, harakatni boshlash va to‘g‘rilil bilan odimlash kerak, yaxshilikdan suyunib, yomonlikdan kuyunib ketmaslik va omad kaliti mehnat ekanligini unutmaslik kerak. Muvaffaqiyatga erishishda maqsadsizlar bilan ishlamaslik muhim ahamiyatga ega. Har bir soha bo‘yicha chuqur bilim olish va abadiy o‘qish hayotni yaxshilovchi omillarning eng ustuvorlaridir.

Yakunida ushbu jumlalarni joiz deb topdim:

Saxiylik-boylik garovi

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ahadquli Xolmuhammad o‘gli “Savdogarlar ustozisi”